

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**





MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ @TMII_ilmiy_bolim

Bosh muharrir:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Muharrir:

Qarshiyeva Shahnoza Davlatovna

Tahrir hay'ati:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, texnika fanlari doktori, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, iqtisod fanlari nomzodi (PhD ekvivalenti), dotsent.
3. G'ulomov Saidahrur Saidaxmedovich – O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisod fanlari doktori, professor.
4. Mamatov Narzullo Solidjonovich – "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, texnika fanlari doktori.
5. Sultonov Mansur Qilichovich – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi "Inno" innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki bosh direktori, texnika fanlari doktori, dotsent.
6. Muxamediyeva Dildora Kabilovna - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori, texnika fanlari doktori
7. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisod fanlari doktori.
8. Popkova Yelena Gennadyevna – Rossiya Federatsiyasi "Ilmiy aloqalar instituti" prezidenti, iqtisod fanlari doktori, professor.
9. Doktor Go Khang Wen – Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori, PhD.
10. Wang Cheng – Xitoy Xalq Respublikasidagi "Xebey mexanika va elektrotexnika texnologiyalari instituti" dotsenti, fan nomzodi.
11. Yo'ldoshev Nuritdin Qurbonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari doktori.
12. Akramov Tohir Abdiraxmonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari doktori.
13. Temirov Abdulaziz Alimjonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
14. Rajabov Nazirdjon Razzakovich – Alfraganus universiteti Xalqaro ilmiy jurnallar va reytinglar kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi.
15. Xotamov Ibodullo Sa'dulloyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari nomzodi.
16. Kadirova Istora Bobirovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, falsafa fanlari doktori.
17. To'raqulov Otabek Xolmizrayevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri, texnika fanlari falsafa doktori.
18. G'iyosidinov Boburbek Baxtiyorovich – Toshkent davlat transport universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, falsafa fanlari doktori.

MUNDARIJA

Yo'ldoshev N.Q.	Boshqaruv qarorlarini texnik-iqtisodiy asoslash zarurligi	4
Anarkulova G. M.	Iqtisodiy yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish metodikasi	10
Kazakov A.N., Khakberdiev M.R., Khamitov N.A., Turgunov Sh.Sh.,	Study of stress-strain state of rocks	20
Abdulloyev A.J., Qosimova H.J.	Mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlari	28
Tursunova M.R.	O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi jarayonida olib borilayotgan islohotlar <i>yyt 338</i>	41
Zoirov S.Z.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari	50
Sodiqov M.A.	Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va ularni pasaytirish usullari	58
Raximqoriyeva N.A.	Motivating employees' work in enterprises	71
Navruz-zoda L.B.	Kichik biznesda innovatsion rivojlanish: xorijiy tajriba asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari	89
Baxanurov O.O.	Iqtisodiyot va siyosat o'zaro ta'sirida mintaqaviy biznes istisnolari: siyosiy-iqtisodiy tahlil	95
Qodirov S.Q.	Globalizatsiya sharoitida marketing va menejment uyg'unligi: xalqaro tajriba va o'zbekiston uchun saboqlar	104
Xotamov I.S.	Sanoat korxonalarida "yashil" texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish mexanizmlari	107
Gofurov D.B.	Bank-moliya tizimida raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va xavflar	122
Жўраев И.И.	Тижорат банклари ресурс салоҳиятини оширишда депозит сиёсатининг роли	134
Абдураимова Н.Р.	Реструктуризация в сфере обеспечения занятости в Республике Узбекистан: анализ институциональ-ных изменений и их влияние на рынок труда	147
Фарходова Ш.Ш.	Сокращение неравенства доходов и бедности в Узбекистане	163
Ахмаджонов А.К.	Халқаро аудит стандартларига мувофиқ аудиторлик текширувларини яқунлаш методологиясини такомиллаштириш	168

BOSHQARUV QARORLARINI TEXNIK-IQTISODIY ASOSLASH ZARURLIGI

Yo'ldoshev Nuritdin Qurbonovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Menejment"
kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

ORCID: 0009-0006-4640-6841

E-mail: nuritdinqurbonovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshqaruv qarorlarini texnik-iqtisodiy asoslash zaruriyati yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonuni talablari asosida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida menejerlar va tadbirkorlarning yangi bilim va ko'nikmalarni egallash masalalari tahlil qilingan. Texnik jihatdan tartibga solish usullari (barqarorlashtiruvchi, ma'muriy, intizomiy) hamda ularning me'yoriy-huquqiy tamoyillari ochib berilgan. Qonun ijrosining iqtisodiy faoliyat, qurilish sohasi va inson kapitalidan samarali foydalanishga ta'siri Turkiya tajribasi misolida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, xalqaro standartlar, innovatsiyalar va malaka oshirish tizimining texnik jihatdan tartibga solish siyosatidagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv qarorlari, texnik jihatdan tartibga solish, iqtisodiy faoliyat, barqarorlashtiruvchi usul, ma'muriy usul, intizomiy usul, me'yoriy tamoyillar, inson kapitali, qurilish sohasi, xavfsizlik, xalqaro standartlar.

Abstract. This article highlights the necessity of technical and economic justification of managerial decisions. Based on the requirements of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Technical Regulation" dated February 27, 2023, the issues of acquiring new knowledge and skills by managers and entrepreneurs in the fields of production and services are analyzed. The methods of technical regulation (stabilizing, administrative, disciplinary) and their legal and regulatory principles are discussed. The impact of law enforcement on economic activity, the construction sector, and the efficient use of human capital is demonstrated through the example of Turkey. Furthermore, the role of international standards, innovations, and the system of professional development in the policy of technical regulation is substantiated.

Keywords: managerial decisions, technical regulation, economic activity, stabilizing method, administrative method, disciplinary method, human capital, construction sector, safety, international standards.

Аннотация. В данной статье раскрыта необходимость технико-экономического обоснования управленческих решений. На основе требований Закона Республики Узбекистан «О техническом регулировании» от 27 февраля 2023 года проанализированы вопросы освоения менеджерами и предпринимателями новых знаний и навыков в сферах производства и услуг. Рассмотрены методы технического регулирования (стабилизирующий, административный, дисциплинарный) и их нормативно-правовые принципы. На примере Турции показано влияние исполнения закона на экономическую деятельность, строительную сферу и эффективное использование человеческого капитала. Также обоснована роль международных стандартов, инноваций и системы повышения квалификации в политике технического регулирования.

Ключевые слова: управленческие решения, техническое регулирование, экономическая деятельность, стабилизирующий метод, административный метод, дисциплинарный метод, человеческий капитал, строительная сфера, безопасность, международные стандарты.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 fevraldagi O'RQ-820 sonli qarori bilan "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonun tasdiqlandi. Ushbu qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kiradi. Shu muddatda tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining menejerlari va tadbirkorlar nimalarni o'rganishi, qaysi bilimlarni o'zlashtirishi lozim?

Qonunning nomidan ko'rinib turibdiki, davlat mamlakatimizda iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni maqsad qilib qo'yyapti, uni tartibga solish mexanizmlarini yaratyapti. Bunday yondashuv bozor iqtisodiga hos bo'lib, menejmentning tartibga solish funksiyasiga mos keladi. Shu o'rinda tartibga solish funksiyasini amalga oshirish mehnat jarayonlarida qanday namoyon bo'ladi? – degan savol tug'iladi.

Iqtisodiyotni tartibga solish quyidagi usullarni qo'llashni nazarda tutadi:

1. Barqarorlashtiruvchi usul. Bu usul muayyan davrda ishlab chiqarish jarayonini bir tekisda, bir maromda olib borishni taqozo etadi. Buning aksi bo'lsa, belgilangan ish hajmi oylar, dekadalar, kunlar bo'yicha barobar bajarilmaydi, muddat boshida sustkashlikka yo'l qo'yiladi, muddat oxirida ura-urachilik qilishga majbur

bo'linadi. Natijada texnik, texnologik talablar bajarilmaydi, mahsulot yoki xizmat sifati buziladi.

2. Ma'muriy usul. Korxonada texnikaga, mehnat sharoitlariga, texnologik jarayonlarni tashkil etishga qo'yilgan talablar bajarilmasa korxona faoliyati nazorat idoralari tomonidan to'xtatiladi.

3. Intizomiy usul. Texnikaviy, texnologik talablar buzilishiga yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarga nisbatan intizomiy – ma'muriy choralar ko'riladi.

Ushbu usullarni qo'llash davomida quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Direktivlik. Texnikaviy, texnologik talablarni bajarish shart.

2. Me'yoriy – huquqiy hujjatlarga rioya etish lozim.

3. Me'yoriylik-ma'lum buyum, mahsulot, xizmat birligiga sarflanishi lozim bo'lgan hom – ashyo, yordamchi materiallar, yoqilg'i (quvvat), ishlov berish vaqti me'yorlariga rioya etish.

Bu komponentlar me'yoriy ko'rsatkichlaridan birortasiga rioya qilmaslik mahsulot yoki xizmatlar sifati buzilishiga olib keladi. Menejment talablariga ko'ra har bir ishni me'yoriga yetkazib, risoladagidek bajarish lozim, shoshqaloqlik bilan pala – partish bajarilgan ish hech qachon sifatli bo'lmaydi. Ushbu talab faqat moddiy resurslardan oqilona foydalanishga doir emas, balki inson kapitalidan

samarali foydalanishga ham tegishli. Inson kapitali – bu uning intellekti va vaqtidan iborat bo'ladi, demak har ikkala resursdan unumli foydalanish lozim, zero vaqt – har bir insonga berilgan cheklangan umrning ajralmas qismidir. Allomalar “vaqt odobiga rioya qilganlar ulug'likka yetishadi” deb ta'lim bergan.

Aynan mana shu qoidalaridan kelib chiqib, qonunda texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari ishlab chiqilgan:

texnik reglamentlarni qo'llashning birligi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida tadbirkorlik sub'yektlarining kamsitilishiga va insofsiz raqobatga yo'l qo'yilmasligi;

texnik jihatdan tartibga solishning hamda muvofiqlikni baholashning birligi va yaxlitligi;

muvofiqlikni baholash organlarining ishlab chiqaruvchilardan, sotuvchilardan va xaridorlardan (iste'molchilardan) mustaqilligi;

muvofiqlikni majburiy baholash tartib – taomillarini amalga oshirishda sinash hamda o'lchash qoidalarining va usullarining birligi;

davlat nazoratiga va muvofiqlikni baholashga doir vakolatlarning bir organ tomonidan birga qo'shib bajarilishiga yo'l qo'yilmasligi;

ikki va undan ortiq davlat nazorati organida ayni bir vakolatlarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmasligi.

Ushbu prinsiplar iqtisodiy faoliyat (biznes)ning ishlab chiqarish,

hizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi barcha sohalariga tegishli. Ularga rioya etish va rioya etmaslik oqibatlarini Turkiyada yuz bergan falokat – zilzilada omon qolganlar va qurbon bo'lganlar misolida ko'rish mumkin.

Turkiyaning janubi – sharqida bir biridan 80 km masofada joylashgan Nurdag'i va Erzincan shaharlari bor. Ularning ikkalasi ham 6 fevral kuni Turkiya va Suriyada sodir bo'lgan zilzila markaziga yaqin. Oqibatda Nurdag'i butunlay vayron bo'ldi, odamlar qurbon bo'ldi, Erzincan esa birorta ham bino vayron bo'lmadi, hech kim jabrlanmadi. Shahar hokimi Elmasog'lu tabiiy ofat oqibatlaridagi bunday farqni mo'jiza deb hisoblamaydi. Vayronagarchilik va qurbonlar yo'qligini u hokim bo'lgan vaqtlarda shaharda noqonuniy bino barpo etilishiga hech qachon yo'l qo'ymagani va quruvchilardan barcha zarur me'yorlarga rioya qilishni talab qilgani bilan izohladi. “Men hatto qarindoshlarimning uylariga muhr bosdim. Chunki biz qonun – qoidaga amal qiluvchi jamiyatga aylanmagunimizcha, shunday azob – uqubatlarga duch kelaveramiz. Bunga nafaqat mahalliy hukumatlar, balki fuqarolar ham mas'uldir”, - dedi Elmasog'lu zilziladan bir hafta o'tib bergan intervyusida.

Turkiyada haqiqiy “qurilish vasvasasi” 2000 yillar boshida “Adolat va taraqqiyot” partiyasining hokimiyatga kelishi bilan sodir bo'lgan.

Turkiya Statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, eng ko'p zarar

ko'rgan o'nta mintaqadagi binolarning taxminan 51 foizi 2001 yildan keyin qurilgan. E'tiborli jihati, bu davrda Turkiyada binolarning ruxsat etilgan maksimal balandligi 20 qavatdan 37 qavatga oshirilgan, ro'yhatga olinmagan qurilish ishlariga sakkiz marta amnistiya e'lon qilingan. Hukumatga muholifatda bo'lgan gazetalardan birining sharhlovchisi iqtidordagi partiyani tanqid qilib, "bo'lajak saylovlarda ovoz olish va pul uchun noqonuniy qurilishlarni kechirdingiz, ammo zilzila buni kechirmadi", - deb aybladi.

Turkiyada eng yirik qurilish amnistiya 2018 yilning may oyida parlament va prezidentlik saylovlari oldidan e'lon qilingan edi. Hukumat qaroriga ko'ra, 2017 yil 31 dekabrgacha qurilgan barcha noqonuniy binolar egalarining arizalari asosida va tegishli to'lovni amalga oshirish evaziga amnistiya qilinishi mumkin qilib qo'yilgan.

Amnistiya paytida jami 10 mln ga yaqin arizalar kelib tushgan bo'lib, ularning 1,8 mln ga yaqini ma'qullangan (xususan, yaqinda sodir bo'lgan zilziladan eng ko'p jabr ko'rgan viloyatlarda 294 mingdan sal ko'proq bino amnistiya qilingan).

O'shanda davlat g'aznasiga 25,5 mlrd turk lirasidan ko'proq mablag' tushgan (hozirgi kurs bo'yicha taxminan 1,3 mlrd dollar). Ko'plab ekspertlar buning halokatli yakun topishi mumkinligi haqida allaqachon jar sola boshlashgan edi: masalan, 2019 yilda Qurilish muhandislari milliy

palatasi raisi Jemal Gekche amnistiya uchun mas'ul amaldorlarni ularning noto'g'ri qarorlari tufayli Turkiya shaharlari "zilzila sodir bo'lgan taqdirda qabristonga aylanishi mumkinligi" haqida to'g'ridan - to'g'ri ogohlantirgan.

Inson unutuluvchi degani rost ekan, u tarix saboqlarini unitar ekan. Vaholanki, eramizdan avvalgi II -III asrlarda o'tgan Vavilon hukmdori Xammurapi qonunlarida "Agar quruvchi bir odamga uy qurib, o'z ishini puxta bajarmasa, uy qulab egasi o'lsa quruvchi qatl qilinishi, agar u mulkni nobud qilsa, uni to'lab berishi shart, chunki uy pishiq qurilmagani uchun qulagan bo'lsa, o'z mablag'iga uy qurib berishi lozim" deyilgan edi.

Yuqorida keltirilgan tahlilni umumlashtirib, mutasaddilar olimlarga quloq solsa mamlakat obod, olimlar mutasaddilar yo'liga yo'rg'alasa mamlakat harob bo'ladi deyish mumkin.

Hazrat Navoiy olimlarni sharaflab, bunday degan:

Haq berdi chu elga ilm sarmoyasini,

Xurshed uza soldi ulamo soyasini,
Olg'anlar aning rutbasidin voyasini,

Bildik boridin biyik aning poyasini.

Xudo elga boyligini bergach, olimlarning soyasi quyosh ustiga tushadigan bo'ldi (ya'ni ular quyoshdan ham ko'ra nurliroqdirlar). Kimki olimlik martabasiga erishib, undan

nasiba olgan bo'lsa, o'sha kishining mavqei hammadan yuksakdir.

Rivoyatlarda kelishicha, bir mamlakat hukmdori quruvchi ustaga katta bino qurishni buyurib, uni bir yilda bitkazishni talab qilibdi. Usta binoning poydevorini qurib, yo'qolib qolibdi. Qurilish tuxtabdi. Oradan bir necha yil o'tib, binokor usta qaytibdi va qurilishni bitkazishga izn so'rabdi. Hukmdor undan nega yo'qolib ketganini so'raganda, usta "shunday qilmasam, bino mustaxkam bo'lmas edi" deb javob bergan ekan.

O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy – joy kommunal xo'jaligi vazirligi qurilish sohasida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi tomonidan sohaviy qurilish – pudrat tashkilotlari reytingi o'lchovlari tuzildi. Ishonchlilik darajasiga ko'ra, reyting "A dan D" gacha toifaga, shuningdek, har bir toifa ham o'z o'rnida 3 darajaga bo'lingan. Ro'yhatdan jami 17 647 ta qurilish korxonasi o'rin olgan.

Reytingga ko'ra, eng ishonchli kompaniya sifatida faqat bittasi "A" toifaning 3 – darajasidan o'rin olgan. Biroq toifaning eng yuqori – 1 – va 2 – darajalariga hech bir kompaniya loyiq ko'rilmagan. "B" toifadan 259 ta, S" toifadan 2719 ta, eng quyi daraja – "D" toifadan esa 14 668 ta kompaniya o'rin olgan.

Turar joy binolari mustahkam bo'lishining o'zi yetarli emas, ular mahalliy iqlimga mos bo'lishi lozim. O'tgan asrning 60 – yillarida qurilgan Xrushevskalar O'zbekiston sharoitiga

to'g'ri kelmasdi, chunki xonalarning pastligi uchun havo yetarli aylanmas edi. Shunga qaramay SSSR qurilish qo'mitasi uylarni ana shu namunaviy loyiha bo'yicha qurishni talab qilgan.

Texnik jihatdan tartibga solishning zarurligini asoslash uchun qurilish sohasiga bejiz e'tibor qaratmadik. Qurilish tizim yaratuvchi soha xisoblanadi, qurilish maydonlarida sanoatning qator tarmoqlari ishlab chiqargan materiallar jamlanadi.

Qonunda texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari aniq ifodalab berilgan. Davlat tizimini quyidagilar tashkil etadi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruv organlari;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;

standartlashtirish bo'yicha milliy organ;

akkreditatsiya organi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari;

muvofiglikni baholash organlari, sinash laboratoriyalari.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

texnik jihatdan tartibga solishning iqtisodiyotni moddiy-texnika bazasini

rivojlantirish darajasiga, shuningdek ilmiy-texnik jihatdan rivojlantirish darajasiga muvofiqligini ta'minlash;

mazkur sohani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

mazkur sohani xalqaro (mintaqaviy) standartlar bilan uyg'unlashtirish;

ilg'or innovasion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

xalqaro xamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu qonun talablariga qat'iy rioya qilish mamlakatimiz va iste'molchilar xavfsizligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" – 2023-yil 27-fevral, O'RQ-820.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Yuldoshev N. Boshqaruv qarorlarini texnik-iqtisodiy asoslash masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. – 2023.
4. Gekche J. "Building Safety and Legal Regulations in Turkey". – Istanbul: Chamber of Civil Engineers, 2019.
5. OECD. Regulatory Policy and Governance: Supporting Economic Growth and Serving the Public Interest. – Paris: OECD Publishing, 2010.
- ISO. International Standards and Conformity Assessment. – Geneva: International Organization for Standardization, 2021.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114